

ZO‘RAVONLIKDAN JABRLANGAN XOTIN-QIZLAR VA BOLALARNI HIMOYA QILISH TIZIMINING TAKOMILLASHUVI**Azizova Xosiyat Axmadbekovna**Namangan viloyati Chortoq tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi
psixologlar guruxi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyatda zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlarini himoya qilish tizimining takomillashuvi masalalari tahlil etilgan. Muallif jamiyatda gender tengligini ta‘minlash, ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda huquqiy, ijtimoiy va psixologik yordam ko‘rsatishning kompleks mexanizmlarini yoritib bergan.

Kalit so‘zlar: Zo‘ravonlik, gender tengligi, xotin-qizlar huquqlari, davlat himoyasi, ijtimoiy xizmatlar, psixologik rehabilitatsiya, voyaga yetmaganlar himoyasi, shelter (boshpana) markazlari, ayollar daftari.

Innovatsion muhit bo‘lishidan qat’iy nazar hozirgi davrga kelib inson o‘zining taqdiri, o‘zi erishadigan maqsaddagi yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizligi, baxt yoki baxtsizlik, hunar tanlashi, kayfiyati, uning oilaviy muhiti bilan bog‘liqdir. Oilaning kelajakdagi yuzaga keladigan taqdiri esa insonning o‘ziga bog‘liq. Jamiyatning ma‘naviy-ma‘rifiy qiyofasi oilalarning qandayligiga bog‘liqligi azaliy haqiqat. Shuni ta‘kidlash lozimki, oilada tartib-intizom bo‘lsa, uning a‘zolari shu xislatlarini xizmat jarayoniga ko‘chiradi va faoliyatlarida qo‘llaydilar.

Hozirgi kunda erkaklar va ayollar teng huquqlarga ega bo‘lgan sharoitda umrguzaronlik qilmoqda va hatto hozirda xotin-qizlarga berilgan imtiyoz-imkoniyatlar har qachongidan yaxshiroq desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Mamlakatimiz huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurish yo‘lida dadil odimlab borar ekan, gender tenglikni ta‘minlash sohasida izchil va samarali sa’y-harakatlar olib borilmoqda. Shu asosda ularni qadrlash va ulug‘lashga, qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan milliy huquq tizimi yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish borasida shunday degan edi: “Hozirgi kunda har bir xotin-qiz demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo‘lmog‘i shart. Afsuski, biz uzoq vaqt bu masalaga yetarlicha e‘tibor bermasdan, hurmatli opa-singillarimizning dardu tashvishlariga beparvo qarab kelganimiz tufayli yillar davomida to‘planib qolgan ijtimoiy muammolarni hal qilish bugun, ochig‘ini aytish kerak, oson bo‘lmayapti. Lekin qanchalik qiyin va murakkab bo‘lmasin, muhtaram opa-singillarimiz uchun munosib ish va turmush sharoitlarini yaratib berish bo‘yicha biz bor kuch va imkoniyatlarimizni to‘la safarbar etamiz”. Shuni inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10-may 2024 yildagi “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-175-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Mazirlar mahkamasining 25-iyun 2024 yildagi “Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 354-son qarorida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga “oila — mahalla — tuman va hudud” tamoyili asosida kompleks ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini joriy etish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullandi. Qarorda xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlarini Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazining hududiy markazlariga joylashtirish va vaqtincha boshpana (shelter) bilan ta‘minlash hamda ulardan chiqarish, xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni «Yagona milliy ijtimoiy himoya» axborot tizimida shakllantirish va yuritish, xotin-qizlar va ularning voyaga

yetmagan farzandlariga «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazlari hamda hududiy markazlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar va ularning monitoringiga alohida to'g'ri o'tilgan.

Tayiq va zo'ravonlik jamiyatdagi eng yomon illatdir. U insonlar o'rtasidagi tenglik va erkinlikni yo'qqa chiqaradi. Qullik, qaramlik, o'zgalar ustidan hukm yuritish, ularni kamsitish va tahqirlashga olib keladi. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, ularni vaqtida aniqlash va ushbu jarayonlarga chek qo'yish uchun samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlari yaratildi.

Yangi O'zbekiston diyorida xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari davlat himoyasida:

1. Huquqiy asoslar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ayollar va bolalarning huquqlarini himoya qilishni kafolatlaydi.

“Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlari kafolatlari to'g'risida”gi Qonun gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan.

“Bola huquqlari to'g'risida”gi Qonun bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi.

2. Davlat himoyasi shakllari.

Ijtimoiy yordam: kam ta'minlangan oilalarga nafaqa, moddiy yordam va subsidiyalar beriladi.

Huquqiy himoya: zo'ravonlikdan jabrlangan ayollar va bolalar uchun himoya orderlari va maslahat xizmatlari mavjud.

Tibbiy va psixologik yordam: rehabilitatsiya markazlari va maxsus boshpanalar faoliyat yuritadi.

3. Xotin-qizlar va bolalar uchun davlat dasturlari.

“Oilaviy ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash” dasturi orqali xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

“Ayollar daftari” tizimi yordamga muhtoj ayollarni aniqlab, ularga ko'mak berish uchun ishlab chiqilgan.

Bolalar sog'lig'ini mustahkamlash va maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish uchun davlat tomonidan subsidiyalar ajratiladi.

4. Zo'ravonlikdan himoya.

“Mehribonlik uylari” va rehabilitatsiya markazlari yetim va og'ir ahvoldagi bolalar uchun xizmat qiladi.

“Ayollar va bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha maxsus markazlar” tashkil etilgan va ularning soni oshirilmoqda.

5. Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish

Ayollar uchun ta'lim va kasbiy malaka oshirish dasturlari kengaytirilmoqda.

Mehnat bozorida gender tenglikni ta'minlash bo'yicha yangi qonunchilik tashabbuslari ilgari surilmoqda.

6. Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga psixologik yordam ko'rsatish

Zo'ravonlik qurbonlariga maxsus psixologik rehabilitatsiya markazlarida yordam ko'rsatish.

Psixologlar tomonidan individual va guruhli maslahat xizmatlarini tashkil etish.

Stress va travmadan qutulish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish va qo'llash.

Oila a'zolari uchun psixologik yordam kurslarini o'tkazish va ularni ijtimoiy moslashuvga tayyorlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2019.

2.O'zbekiston Respublikasining —Bola huquqlari kafolatlari to'g'risidagi Qonuni. –Qabul qilingan sana: 2019-yil 20-iyul.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2023-yilgi tahrir.

4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. —Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya, 1989-yil. <https://www.unicef.org/child-rights-convention>
5. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi. —O'zbekistonda bolalar mehnatini bartaraf etish borasidagi islohotlar. — <https://nhrc.uz>
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman). —Voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash samaradorligini oshirish. — <https://ombudsman.uz>
7. Qo'shiyev M. —Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi va ularning javobgarlik masalalari. — Iqtisodiyot va huquq jurnali, 2023. <https://ijournal.uz/index.php/judr/article/view/1836>
8. UNICEF Uzbekistan. —Child labour in Uzbekistan: progress and remaining challenges. <https://www.unicef.org/uzbekistan>